



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**QORAQALPOG'ISTON  
RESPUBLIKASIDA  
QURILISH ISHLARI**

**2023- YIL  
YANVAR-APREL  
OYLARI**





# Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi

2023-yilning yanvar-aprel oylarida, Qoraqalpog'iston Respublikasida jami **1572,5** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2022-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **103,0** % ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.






## Qurilish ishlari 2023- yil yanvar-aprel oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxonalar va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1572,5	89,8	1196,5	286,2
Nukus sh. tumanlar:	481,2	7,3	460,8	13,1
Amudaryo	82,3		50,0	32,3
Beruniy	90,8		47,8	43,0
Bo'zotov	27,3		23,6	3,7
Qorao'zak	29,8	3,4	21,8	4,6
Kegeyli	30,7	1,7	22,9	6,1
Qo'ng'iro't	105,9	23,4	55,4	27,1
Qonliko'l	24,3		11,7	12,6
Mo'ynoq	77,1	17,6	54,6	4,9
Nukus	84,0		63,5	20,5
Taxiatosh	88,8	15,4	69,0	4,4
Taxtako'pir	38,3	4,1	30,7	3,5
To'rtko'l	198,7	15,5	142,7	40,5
Xo'jayli	56,9		49,2	7,7
Chimboy	49,3		17,2	32,1
Shomanay	13,2		5,4	7,8
Ellikqal'a	93,9	1,4	70,1	22,4

2023- yilning yanvar-aprel oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 89,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 74,8 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2,3 % punktga kamayib, 5,7 % ni tashkil etdi.

## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



**MA'LUMOT UCHUN:** Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Mo'ynoq tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 22,9 % i yoki 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 94,1 %), Qo'ng'iro't tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 22,1 % yoki 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 47,5 %) va Taxiatosh tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 17,3 % i yoki 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 234,5 %) ga to'g'ri keldi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2023- yilning yanvar-aprel oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 76,1 % i to'g'ri kelib, 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 0,9 % punktga ko'paygan. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 105,5 % ni tashkil etgan holda 1196,5 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, % da



76,1

2023- yil  
yanvar-aprel


75,2

2022- yil  
yanvar-aprel



**MA'LUMOT UCHUN:** Joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori hajm ko'rsatkichi Nukus shahri (460,8 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan ulushi 95,8 %), To'rtko'l tumani (142,7 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan ulushi 71,8 %), Ellikqal'a tumani (70,1 mlrd. so'm yoki 74,6 %) ga to'g'ri keldi.

Norasmiy sektor hissasi to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **18,2 %** ni tashkil etdi yoki **286,2 mlrd.so'm** miqdorida qayd etildi. 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **105,6 %** ni tashkil etdi.



### Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **1528,1 mlrd. so'm** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **44,4 mlrd. so'm** qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda **2,8 %** va **97,2 %** ni tashkil etdi.



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,  
rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta quollantirish ishlari ulushi  
2023- yil yanvar-aprel oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **58,5 %** i yoki **919,6** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**7,8 %**

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **72,1** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **7,8 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **568,7** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi **61,8 %** ni tashkil etdi.

**61,8 %**

**30,3 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **278,8** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **30,3 %** ni tashkil etdi.




# Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-aprel oylarida

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>1572,5</b>	<b>103,0</b>	<b>100,0</b>
<b>Nukus sh.</b>	<b>481,2</b>	<b>105,0</b>	<b>30,7</b>
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	82,3	102,3	5,3
Beruniy	90,8	103,2	5,9
Bo'zotov	27,3	101,6	1,7
Qorao'zak	29,8	100,6	1,9
Kegeyli	30,7	104,9	2,0
Qo'ng'iro't	105,9	100,2	6,7
Qonliko'l	24,3	101,7	1,5
Mo'ynoq	77,1	100,5	4,9
Nukus	84,0	102,9	5,3
Taxiatosh	88,8	105,1	5,6
Taxtako'pir	38,3	104,5	2,4
To'rtko'l	198,7	100,5	12,6
Xo'jayli	56,9	100,4	3,6
Chimboy	49,3	103,8	3,1
Shomanay	13,2	103,4	0,8
Ellikqal'a	66,0	107,0	6,0



# Respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

ulushi % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 3,1 % ni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 0,4 % punktga ko'paygan.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 2,3 % punktga kamayib, 65,1 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 1,9 % punktga ko'payib, 31,8 % ni tashkil etdi.


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 10,2 % ni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 8,1 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 89,8 % ni tashkil etdi.

## ulushi % da




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 2,3 % punktga kamaydi va 7,1 % ni tashkil etdi. Qolgan, 92,9 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 2,3 % punktga ko'paydi.



# Korxonalar turlari bo'yicha shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-aprel oylari



ulushi % da



**Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi  
Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi**

**Aloqa telefoni: (61) 224-92-14  
(61) 222-75-91**

